

*Toshboyev Zafarjon Mahramqulovich,
geografiya fanlari falsafa doktori, Jizzax
davlat pedagogika universiteti Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi,
O'zbekiston, Jizzax sh.*

*Rasulova Nafisa Komil qizi
Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O'zbekiston, Jizzax sh.*

*Ummatova Bahora Shuhrat qizi
Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O'zbekiston, Jizzax sh.*

*Jumanazarova Sevinch Xayrulla qizi
Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O'zbekiston, Jizzax sh.*

MUHOFAZA QILINAYOTGAN TABIIY HUDUDLARDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: bugungi kunda mamlakatimizda muhofaza qilinayotgan tabiiy hududlarda ekoturizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda va ekoturizmni rivojlantirish maqsadida uni tadqiq etishga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu maqolada muhofaza qilinayotgan tabiiy hududlarda ekoturizmni rivojlantirishning ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: muhofaza qilinayotgan tabiiy hudud, qo'riqxonalar va milliy bog'lar, ekomarkaz, ekoturizm, ekotur, turistik marshrut, arxeologik topilmalari, paleontologik qoldiqlar, noyob tabiat maskanlari.

*Тошбоев Зафаржон Махрамкулович,
Доктор философии по географическим наук,
старший преподаватель кафедры География и
основы экономических знаний Джизакский
государственный педагогический университет
Узбекистан, г.Джизак*

*Расулова Нафиса Комил кизи,
Студент по специальности географии
Джизакский госпедуниверситет*

*Умматова Бахора Шухрат кизи,
Студент по специальности географии*

Джизакский госпедуниверситет

*Жуманазарова Севинч Хайрулла кизи,
Студент по специальности географии
Джизакский госпедуниверситет*

ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА НА ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЯХ

Аннотация: на сегодняшний день в нашей стране большое внимание уделяется развитию экотуризма на особо охраняемых природных территориях, растет интерес к его изучению в целях развития экотуризма. В данной статье рассматриваются важность развития экотуризма на охраняемых природных территориях.

Ключевые слова: охраняемая природная территория, заповедники и национальные парки, экоцентр, экотуризм, экотур, туристический маршрут, археологические находки, палеонтологические памятники, уникальные природные объекты.

*Toshboev Zafarjon Makhramkulovich,
Doctor of Philosophy in Geographical Sciences,
Senior Lecturer, Department of Geography and
Fundamentals of Economic Knowledge, Jizzakh
State Pedagogical University
Uzbekistan, Jizzakh*

*Rasulova Nafisa Komil qizi
Student of Geography Education
Jizzakh State Pedagogical University*

*Ummatova Bahora Shuhrat qizi
Student of Geography Education
Jizzakh State Pedagogical University*

*Jumanazarova Sevinch Xayrulla qizi
Student of Geography Education
Jizzakh State Pedagogical University*

THE IMPORTANCE OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN PROTECTED NATURAL AREAS

Abstract: today in our country much attention is paid to the development of ecotourism in specially protected natural areas, interest in its study for the purpose of ecotourism development is growing. This article discusses the importance of developing ecotourism in protected natural areas.

Keywords: protected natural area, reserves and national parks, ecocenter, ecotourism, ecotour, tourist route, archaeological finds, paleontological monuments, unique natural objects.

Kirish. Muhofaza qilinayotgan tabiiy hududlarning hozirgi zamon kishilari hayotidagi ahamiyati va roli tobora ortib borayotgan bugungi kunda odamlardan tabiatga yanada ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni taqozo etmoqda. O'zining tarixiy hududida yashab, o'zini hurmat qiladigan har bir xalq doimo tabiiy boyliklarini nafaqat muhofaza qilish, balki ularni ko'paytirish va o'z ona yerida mavjud bo'lishi sharoitini maksimal darajada yaxshilash imkoniyatlaridan foydalanib kelajak avlodlarga saqlab qolishga qayg'urishi lozim. Sayyoramizning tabiat qo'riqxonalari shuning uchun yaratilganki, fan-texnika taraqqiyotining barcha yutuqlariga erishgan va koinotga parvoz qilgan davrda yashayotgan inson Yer yuzida tabiatning ilk bor vujudga kelgan burchaklari ajdodlarimiz tomonidan haligacha saqlanib qolganligini unutmasligimiz lozim.

Asosiy qism. Mamlakatimizda hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab noyob hamda ekologik, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, sanitariya-sog'lomlashtirish, estetik nuqtai nazardan milliy boyligimiz sanalgan va umumxalq mulki bo'lmish qimmatli muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni tashkil etishning huquqiy, ekologik, iqtisodiy va tashkiliy umumiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 3 iyulda qabul qilingan "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunida ham belgilab berilgan. Shuningdek, bugungi kunda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar – qo'riqxonalar, milliy parklar dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishda tarbiyaviy, vatanparvarlik, tabiiy-muzey, ilmiy, madaniy, ta'limiy, rekreatsion-sog'lomlashtirish, ekologik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar kishilarni madaniyatga, tabiat go'zalliklariga, tabiat yodgorliklariga mehr qo'yishga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Sayyoramizda teginilmagan tabiat go'shalari yil sayin kamayib borayotgan hozirgi davrda rang-barang tabiatning tabiiy muzeylik qiymati ortib bormoqda. Tabiatning resurs salohiyatini baholash, ilmiy va amaliy tadqiqot ishlarida esa qo'riqxonalar

va milliy bog'larni ochiq osmon ostidagi dala laboratoriyasi ham deyish mumkin. Shuning uchun muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda ko'p yillar mobaynida yig'ilgan qimmatli eksponatlar va ekspozitsiyalarning ajoyib kolleksiyalarini topish mumkin va ularning kam teginilgan tabiati monitoring olib borish uchun etalon hisoblanadi. Tadqiqot olib borayotgan ilmiy xodimlar ushbu tabiat kompleksidagi komponentlari ustida tadqiqot olib borish bilan birgalikda ularni saqlab qolish borasidagi tavsiyalar ishlab chiqishadi, biologik xilma-xillikning ortishiga hissa qo'shadi. Tashrif buyurgan sayyohlarda esa o'zini o'rab turgan atrof-muhit haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda bir qancha yo'nalishlarda ekoturistik marshrutlar uyushtirish mumkin. Asosiy yo'nalishlarning qisqacha tavsifi quyidagilardan iborat: 1. Ilmiy ekologik turizm – ilmiy muassasalar va mutaxassislar (zoologlar, entomologlar, botaniklar va h.k.) uchun oldindan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. 2. Umumta'limiy ekologik ekskursiyalar – faqatgina maxsus uchastkalarda amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalish mahalliy tashrif buyuruvchilarga mo'ljallangan. 3. Bolalar uchun mo'ljallangan ekoturlar – imtiyozli kategoriya. Har yili qo'riqxonaga yordam beruvchi bolalar uchun bepul tashkil etiladigan ekologik lagerlar. 4. Yuqori darajada ta'minlangan aholi uchun yoki kommersion (tijorat) ekskursiyalar – tashkilotga foyda keltiruvchi, ya'ni xizmat ko'rsatish odatdan tashqari 20 %ga qimmatlashtirilgan turlar. Qo'riqxona rejimiga to'g'ri kelmaydigan takliflar ko'rib chiqilmaydi. 5. Sarguzasht ekoturlar – yakka (individual) mijozlar bilan ishlash shakli. Kommersion ekskursiyalardan farqli ravishda mijozning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, muayyan belgilangan hududlardagi marshrutlar. Barcha ekoturlar jarayonida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan tashviqot ishlari mazmun va mohiyatiga ko'ra ishonarli, aniq maqsadga qaratilgan, tizimlashtirilgan tarzda olib borilsa yuqori natijalarga erishiladi. Biosfera qo'riqxonasi hududining

zonal tuzilishi kompleks ekologik turlarni tashkillashtirishga mos keladi. Bunday turlar ekologik turizmda peshqadam bo'lgan Janubiy Afrika Respublikasi va Avstraliyada keng ommalashgan. Shunday turlarga ajratilgan vaqtning bir qismi inson ta'sir etmagan tabiat bilan tanishish bo'lsa, qolgan qismi etnografik bo'lib, yerli aholi turmush tarzi, xo'jalik faoliyatining an'anaviy shakllari, madaniyati, urf-odatlar, an'analari, rasm-rusumlari, an'anaviy taomlari, mahalliy arxitektura va boshqalar bilan tanishishdir.

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar insonning yovvoyi tabiat bilan muloqoti ijobiy emotsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi hamda katta psixoterapevtik ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina qo'riqxonalar o'z hududlarida shifobaxsh manbalarga ega bo'lib, ular aholining salomatligini tiklashda asqotishi mumkinligi bilan rekreatsion-sog'lomlashtirish jihatdan katta ahamiyatga ega. Muhofaza qilinayotgan tabiiy hududlar saqlanayotgan yovvoyi tabiat insonlarning Yer yuzasida bugungi kunda yashab qolishi uchun juda zarur bo'lib, keng ommaning fikriga binoan, faqatgina qo'riqlanadigan hududlar ekologik muvozanatni ta'minlashga qodir. Qo'riqxonalarning asosiy vazifalaridan biri – aholi bilan ekologik-ma'rifiy-ma'naviy ishlarni olib borish nuqtai nazaridan ekologik (muhit tashkil qiluvchi) ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida ko'pgina qo'riqxonalarda maxsus bo'limlar tashkil etilgan bo'lib, u yerdagi mutaxassislar aynan shu faoliyat bilan shug'ullanadilar. Ushbu ekologik-ma'rifiy bo'limlar o'zining naqadar ahamiyatli va zarur ekanligini isbotlab bergan.

O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish tarmog'i o'z ichiga 8 ta qo'riqxona, 2 ta tabiat milliy bog'i va 1 ta milliy bog', 1 ta biosfera rezervati, 11 buyurtmaxona va 1 ta – Sayg'oqli majmua (landshaft) buyurtmaxonasi, Jayron respublika ekomarkazi, 10 taga yaqin tabiat yodgorliklarini olgan. O'zbekistondagi alohida muhofaza qilinadigan hududlarda ham ekoturistik marshrutlar tashkil etilmoqda. Xususan, ekomarshrutlarni tashkillashtirishda muhofaza etiladigan hududlar tartibiga rioya qilishni ta'minlash zarur.

Buning uchun muhofaza qilinadigan hududlar rahbariyati Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turist va ekskursantlar uchun qoidalar ishlab chiqishlari kerak bo'ladi.

Har qanday marshrut yo'nalishi tanlanganda, avvalo uning maqsadi inobatga olinishi lozim. Ushbu ekoturistik marshrutlarning maqsadi ekologik ta'lim-tarbiya berish, tabiat bilan o'zaro munosabat madaniyatini ko'tarish, tabiiy muhitda o'zini tutish hamda ahloq-odob me'yorlariga rioya qilishdan iborat. Hozirgi kunda qoidaga aylanib qolgan holatlardan biri, har bir ekoturistik marshrutlarning ichki mazmunini belgilash uchun avval uning maqsadi, ekotur o'tkazilishi kutilayotgan ob'ekt, undagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari o'ylab ko'riladi. Ayrim mutaxassislar ekskursiyalarni o'tkazishdan avval quyidagi amallarni bajarishni tavsiya etadilar: shaharlar bilan uning atrofidagi joylar, qishloq joylari va tabiiy landshaftlar aloqadorligini aniqlash; tabiiy atrof-muhitga, landshaftlarga, tabiatdan foydalanish tarixiga e'tiborni qaratish; kishilar faoliyati ta'siri ostida landshaftlarning hozirgi ko'rinishi va kelajak istiqbollari, ya'ni dinamik holatiga e'tiborni qaratish; landshaftlarning ekologik holatini ijobiy tomonga o'zgartirish yo'llarini ishlab chiqishni rejalashtirish; alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar turi va ularning maqomini aniqlashtirish; sayohatchilarning ekologik ongi va madaniyatini ko'tarishning yechimini topish va h.k.

Mamlakatimiz hududida xorijiy turistlarni jalb qiluvchi nafaqat dunyoga mashhur Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz singari tarixiy shaharlar, qadimgi me'moriy obidalar va yodgorliklar, balki shu bilan birgalikda ekoturizm bilan bog'liq bo'lgan betakror go'zal tabiati, landshaftlari, xilma-xil noyob o'simlik va hayvonot dunyosi, jahon ahamiyatiga ega bo'lgan nodir arxeologik topilmalari, paleontologik qoldiqlar, dunyoda kam uchraydigan geologik kesimlari, 8000 dan ortiq tabiiy yodgorliklari mavjud. Bugungi kunda O'zbekistonda ovchilik-baliqchilik yer maydonlari 38 mln. gektardan ortiq

bo'lib, shundan 1 mln. gektarini suv fondi– ko'llar, daryolar, suv omborlari tashkil etadi. Respublikamiz faunasi 97 turdagi o'txo'r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 turdagi baliqlarga ega. Ulardan O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga o'txo'r hayvonlarning 24 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdagi umurtqasizlar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi FA Botanika instituti ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz hududida hozirgi kunda o'simliklarning 4100 dan ortiq turlari mavjud bo'lib, ulardan 3000 dan ortiq turi yovvoyi holda o'suvchi yuksak o'simliklar va ularning 9 %i endemiklar tashkil etadi.

O'zbekiston hududining muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tarkibida 2164 km² maydonni tashkil etgan 9 ta davlat qo'riqxonasi, 6061 km² maydonni tashkil etgan 2 ta milliy bog' va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko'paytirish Respublika markazi ("Jayron" Ekomarkazi), umumiy maydoni 12186 km² ni tashkil etgan 11 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud. Muhofaza qilinayotgan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 20520 km² yoki O'zbekiston hududining 5,2 %ini tashkil etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rtasida ekoturizmning rivojlanishi uchun qulay transport-geografik arealda joylashgan bo'lib, turli xildagi rivojlangan transport hamda transport-kommunikatsiya aloqa yo'llari bilan bog'langan bo'lib, o'zining xalqaro turizm salohiyati bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarni egallaydi.

Ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqishda sayyohlik ob'ektining reliefi, tog' jinslari, iqlimi, yer usti va yer osti suvlari, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlarni mukammal o'rganish maqsadga muvofiq. Qo'shimcha ma'lumot sifatida joyning geokomplekslari, tabiatni muhofaza qilishga oid olib borilayotgan tadbirlar hamda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning huquqiy maqomi to'g'risidagi axborotlar berilsa turistik marshrutlar haqiqiy ekologik yo'naltirilgan bo'ladi. Xususan, har qanday boshqa turistik sayohatlar qatori ekologik turlarda ham dam olish, jismoniy va ruhiy kuch-quvvatni tiklash maqsadi yotadi. Ko'pgina tadqiqotchilar ekoturizm

mohiyatini sifatli sayohat maqsadida bilishni, ekologik bilimga, ma’rifatga, tabiatga nisbatan mehr tuyg’ularini uyg’otishga yo’naltirganlar. Ekoturizmni rivojlantirish uchun doimiy saqlab turiladigan va shakllana boradigan ekologik marshrutlar tarmog’ini ishlab chiqish hamda yo’naltirishga amal qilinishi lozim. Bunday marshrutlar uzoq vaqt davom etadigan va qiyinchilik darajasiga ega bo’lgan, landshaftlarning o’ziga xos xususiyatlarini namoyon etadigan, tipik atrof tabiiy muhit manzaralarini ko’rsata oladigan, tarixiy-madaniy obyektlarini birlashtiradigan, yetarli darajada to’la axborot bilan ta’minlangan bo’ladi. Hozirgi kunda O’zbekistonning alohida muhofaza etiladigan hudularidan – “Jayron” ekomarkaziga, Ugom-Chotqol milliy bog’iga ekoturlar tashkil etilgan. Ekologik turizm rivojlangan mamlakatlarning malaka va tajribasiga tayangan holda O’zbekistonning turli burchaklaridagi qo’riqxonalar, milliy bog’lar, buyurtma qo’riqxonalarga ekologik turlar, marshrutlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Mamlakatimizda ekoturizm imkoniyatlari nihoyatda katta hamda turistik salohiyati bo’yicha dunyo ekoturizm industriyasida yuqori o’rinlarni egallasada, lekin amalda O’zbekistonda bu salohiyat va imkoniyatlardan to’la-to’kis foydalanish uchun ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar hali yetarli darajada amalga oshirilgan emas. Chet el sayyohlarini O’zbekistonga, umuman Markaziy Osiyo tabiatiga, noyob nabotot va hayvonot dunyosiga jalb etish maqsadida “EKOSAN” xalqaro tashkiloti qoshida 2006 yil Xalqaro Ekoturizm Markazi tashkil etildi va u hozirgi kunda o’z faoliyatini olib bormoqda.

“O’zbekturizm” Milliy Kompaniyasi oxirgi yillarda O’zbekiston hududlari bo’yicha ko’pgina ekologik turlar ishlab chiqdi hamda ekologik turizm bilan bevosita bog’liq bo’lgan tashkilotlarni tashkil etdi. O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo’mitasi Davlat bionazorati “Tabiiy hududlarni muhofaza qilish” bo’limi Jayron “Ekomarkazi”ning 30 yillik faoliyatiga, jayron, Prjevalsk otlari, qulonlarni saqlash va ko’paytirish, ularning etalogiyasi, biologiyasi, fiziologiyasini o’rganish hamda ekoturizmni

rivojlantirish maqsadida “Jayron” Ekomarkaziga qo‘shni, ochiq yo‘l hududida joylashgan 27300 gektar maydonni tashkil etgan markaz tajriba uchastkasini milliy tabiat bog‘iga aylantirishga bag‘ishlangan buklet-broshyura 3 tilda chop etilgan.

Hozirgi kunda ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida ushbu bo‘lim hodimlari “Jayron” Ekomarkaziga qo‘shni bo‘lgan 27300 ga maydonni tashkil etgan hududda Markaziy Osiyoda kam uchraydigan noyob juft tuyoqli hayvonlarni (jayron, Buxoro qo‘yi, Buxoro bug‘usi, yovvoyi echki, burama shohli echki morxo‘r, yovvoyi cho‘chqa) saqlash va ko‘paytirish va ularni himoya qilingan areal hududlariga (qo‘riqxona, milliy bog‘lar, muhofaza qilingan tabiiy hududlar) qaytarish, tabiiy milliy bog‘ tashkil qilish borasida ilmiy-iqtisodiy asoslangan loyiha tuzish ishlarini olib borishmoqda. Qo‘mita tasarrufida “Sayhun” xo‘jaligi Toshkent shahridan 100 km janubi-sharqda joylashgan bo‘lib, 367 gektar maydonni tashkil etadi. Mazkur maydon shimol, sharq va janub tomonidan 140 gektarni tashkil etgan ko‘l bilan ishonchli tabiiy chegaraga ega. Ushbu hududda to‘ng‘iz, yovvoyi cho‘chqa, chiyabo‘ri, qushlardan qirg‘ovul, yovvoyi o‘rdak va boshqa suvda suzuvchi yovvoyi qushlar, baliqlar mavjud. U yerda ularning yashashi uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Hozirgi kunda mazkur xo‘jalikda yovvoyi o‘rdak va g‘ozlar ko‘paytirilmoqda hamda ekoturistlar uchun jahon andozalariga va talablariga javob bera oladigan mehmonxona ta‘mirdan chiqarilmoqda. Hozirgi vaqtda “Sayxun” xo‘jaligida Markaziy Osiyoda qirilib ketish arafasida turgan juft tuyoqli hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va ularni tabiatga qaytarish maqsadida parvarishxona tashkil etilgan. Ushbu maskan mahalliy va chet el ekoturistlarini turizmni tabiatga sayohat va ekosafari turlarini o‘tkazish uchun juda qulay joydir. Chunki bu yerda nafaqat yuqorida ko‘rsatilgan hayvonlar, balki Markaziy Osiyoda qirilib ketish arafasida turgan noyob Buxoro bug‘usi, Buxoro qo‘yi, Seversov qo‘yi, Buxoro jayronlari, burama shoxli morxo‘r echkisi kabi

boshqa turdagi kamyob juft tuyoqli hayvonlarni yashash va ko'paytirish uchun yetarli ozuqaviy resurslar va himoya mavjud.

Surxondaryo viloyati noyob hayvonot va nabotot dunyosini tiklash, ko'paytirish hamda O'zbekiston va chet el ekologik turizm sayohatchilarini yovvoyi tabiat bilan tanishtirish, dam olish, ov va qaliq ovlash maskani yaratish maqsadida 2006 yil 9 mart kuni O'zbekiston Respublikasi davlat bionazorati nozirligi qoshida Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani, Termiz shahridan 30 km shimoli-sharqida, jami 1034 gektar maydonni tashkil etgan Oqtepa suv omborining atrofida joylashgan "Oq tepa" tabiat bog'i tashkil etildi. Mazkur maskan migratsiya qiluvchi qushlar, yovvoyi o'rdak va suzuvchi qushlarning vaqtincha dam olib, to'xtab o'tuvchi hamda ko'pgina qushlarning qishlab qolish makoniga aylangan hududdir.

Hozirgi kunda "Oq tepa" tabiat bog'ida o'rmonzorlar, saksovulzorlar barpo etish, tabiiy to'qayzorlar hamda Markaziy Osiyoda qirilib ketish arafasida turgan noyob o'simlik dunyosini tiklash va ko'paytirish borasida ishlar amalga oshirilmoqda. Jizzax shahridan 65 km shimoli-g'arbida joylashgan baliq turlariga boy Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ekoturizmning tabiatga sayohat hamda baliq ovlash turlari o'tkazish uchun jahon talablariga javob beradigan mexmonxona qurib bitkazildi. Bundan tashqari, davlat bionazorati Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida tezkor reytda tekshirish ishlarini kuchaytirish hamda ekoturistlarni ko'l va uning atrofi tabiati, landshaftlari, hayvonot va nabotot dunyosi bilan yaqinroq tanishtirish maqsadida zaruriy texnika va jihozlar bilan ta'minlangan.

O'zbekistonga keluvchi ekoturistlarga servis hizmati ko'rsatilishi sohasiga hozirgi zamon texnologiyalarini jalb qilishga ham e'tibor berilmoqda. Ma'lumki, ekoturizm maskanlari, asosan markazlashgan energiya ta'minoti tizimlaridan chetda borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan. Shuning uchun bu maskanlarni elektr energiyasi (yoritish, TV, radio, aloqa va hq) va issiq suv bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish

davlat qo‘mitasi tomonidan xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda foto elektr stansiyalari va quyosh kollektorlarini o‘rnatish ishlari amalga oshirilgan. Mamlakatimizdagi bir qator qo‘riqxonalarda, Surxondaryo viloyatida “Oq tepa” tabiat bog‘iga, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi atrofida, Jizzax viloyatidagi “Zomin”, “Turkiston tog‘ tizmasining fauna, florasini o‘rganish monitoringi va o‘quv Markazi”da, Buxoro viloyatidagi “Jayron” ekomarkazi parvarishxonasiga ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari o‘rnatildi. Ta’kidlash joizki, oxirgi yillarda O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan bu borada olib borilayotgan ishlar, chora tadbirlar, albatta yaqin yillarda O‘zbekistonda ekoturizmning sezilarli ravishda rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Ekoturizmning tashkiliy-huquqiy masalalari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida 2007-2015 yillar davomida ekoturizmni rivojlantirish chora-tadbirlari davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni yoki Farmoyishi hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorini qabul qilish. Dasturda mamlakatimizda ekoturizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilab berish, moddiy-moliyaviy asosini ko‘rsatish, amaliy ishlarni bajarish muddatlarini aniqlab berish.
2. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va O‘zbekturizm milliy kompaniyasi huzurida ekoturizm bo‘yicha maxsus bo‘linmalarni tashkil etish va ularning nizomlarini ishlab chiqish.
3. Ekoturistik xizmat ko‘rsatishning turli mulk shakllarini kengaytirish va unda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.
4. Ekoturizm bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga imtiyozli kreditlar berish, soliqqa tortish, bojxona to‘lovlarini amalga oshirish masalalarini zamon talabiga moslashtirish.
5. Ekoturizmga oid me‘yoriy-huquqiy tizimni atroflicha chuqur tahlil qilish, ularni takomillashtirish, tegishli qo‘shimchalar hamda o‘zgartirishlar kiritish ekoturizmning huquqiy mexanizmini yaratish.
6. Ekoturizm bilan shug‘ullanayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga: namunaviy loyiha va biznes

rejalarni ishlab chiqish, moddiy-texnika, axborot-tahliliy, tezkor xizmat ko'rsatish bazasini yaratish. 7. Respublikada mintaqaviy, milliy, mahalliy va xalqaro ekoturistik jamg'armalarni tashkil etish.

Ekoturistik fan, ta'lim, tarbiya va targ'ibot: 1.Reklama maqsadida ekoturizm to'g'risida broshyura, buklet, pamflet, varaqa va shu kabilarni yetarli adadda chop etish. 2.Ekoturizmga oid ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish uchun fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bo'yicha davlat grantlarini ajratish hamda tanlovlarni o'tkazish. 3.Ekoturizm yo'nalishidagi ilmiy ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida ilmiy amaliy Markazni tashkil etish. 4.Ekoturizm yo'nalishidagi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining Ixtisoslashgan Kengashlari tarkibida maxsus shifrlarni (masalan, "Ekoturistik boshqaruv va biznes", "Ekoturizm iqtisodiyoti" kabi mutaxassisliklarni) tarkib toptirish masalalarini ko'rib chiqish. 5."Ekoturistik xizmat", "Ekoturistik marketing va menejment", "Ekoturizm gidi" kabi mutaxassisliklar bo'yicha o'rta bo'g'indagi kasb-hunar ta'limidagi tegishli yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashning uzviyligini ta'minlash. 6.Ekoturizm bo'yicha davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv dasturlari va rejalarini ishlab chiqish, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarni yaratish. 7.Ekoturizm bo'yicha kadrlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limini yo'lga qo'yish. 8.Aholining ekoturistik ongi va madaniyatini o'stirish uchun ommaviy axborot vositalarida ekoturizmga bag'ishlangan maxsus rukn va turkumlarni tashkil etish, konkurslar, viktorinalar va lotareya o'yinlarini o'tkazish. 9.Ekoturizmga bag'ishlangan ilmiy-ommabop, ommabop nashrlarni (karta, buklet, atlas, taqvim, CD, DVD diskleri) chop etish. Internetda davlatning axborotlashuv va tarqatuv saytlarini tashkil etish. 10.Ekoturistik infratuzilmani shakllantirish. 11.Ekoturizm orqali yoshlarimizda milliy g'oya va iftixorni tarannum etish.

Ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari: 1.Ekoturizm ob'ektlarida aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy muxofaza qilish muammolarini hal qilish. 2.Ekoturizm qadamjoylarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, turistik infratuzilmani hosil qilish. 3.Ekoturizmning jahon talablariga javob bera oladigan moddiy-texnik, axborot taxliliy bazasini yaratish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish lozim. 4.Ekoturizm maskanlarini elektr energiyasi (yoritish, televidenie, radio, aloqa va h.k.) va issiq suv bilan ta'minlash maqsadida ekologik toza, qayta tiklanuvchi muqobil energiya qurilmalari yordamida foydalanishni keng yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishni ommaviy tus olishi uchun faqatgina yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlar yetarli emas, albatta. Buning uchun ekologik ta'lim, tarbiya, targ'ibot, tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda hamjihat bo'lib, sohaga tegishli muassasa va tashkilotlar hamkorlikda harakat qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu yo'nalishda yuzaga keladigan barcha kamchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi, Ekosan xalqaro tashkiloti qoshidagi Ekotur markazi va boshqa ekoturizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tegishli qo'mitalar, vazirliklar hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda umumiy ilmiy-iqtisodiy asoslangan O'zbekistonda Ekoturizmni bosqichma-bosqich rivojlanish strategiya dasturini ishlab chiqish, izchil hayotga tatbiq etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulqosimov A.A., Toshboyev Z.M. O'rta Osiyo mintaqasida landshaft komplekslarini muhofaza qilish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax, 18 iyun, 2022. 4-12 bb.

2.Komilova N.K., Usmanov M.R. Jizzax viloyatida turistik destinatsiyalarni tashkil etishning hududiy jihatlari. Monografiya – Jizzax. JDPU "Tahririy-nashriyot bo'limi nashri", 2023. – 208 bet.

3. Komilova N.Q, Usmanov M.R., Hakimov D.R. Turistik destinatsiyalarni o'rganishning geografik jihatlari // Yangi o'zbekistonda geografiya fani va ta'limdagi muammolar. Respublika ilmiy - amaliy konferensiyasi materiallari. - Jizzax . JDPI, 2022. 178-181 b.
4. Toshboyev Z.M., Hazratqulova G., Esirgapova Yu. Zomin milliy tabiat bog'i. // Geografiya va globalizatsiya: nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Andijon. 2018. 147-149 bb.
5. O'zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi rasmiy sayti – <https://turizm.gov.uz>
6. Jizzax viloyati hokimligi rasmiy sayti – <https://jizzax.uz>
7. Zomin milliy bog'i haqida ma'lumotlar – <https://nationalparks.uz>
8. Geografiya fanlari bo'yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar – Google Scholar (<https://scholar.google.com>)
9. O'zbekiston sayyohlik portali – <https://uzbekistan.travel>